

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MILLIY KITCH PALATASI

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

**Muassislar:**

O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq  
Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar  
Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» Hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro  
xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan


2006-yil 3 - 9 - iyul N:27 (66568)

**SAHIFALARDA**

**JURNALIST -  
SAODAT  
DARAKCHISI**



**3-BETDA**



**SHUKUR  
BURHONNING  
TUTINGAN  
O'G'LI**

**5-BETDA**

**RESPUBLIKA  
SIRTQI  
MAKTAB  
OLIMPLADASI  
YAKUNI**


**7-BETDA**



«Biz Prezident farzandlarimiz» shiori ostida Mirzacho'l tumanida yoshlar forumi bo'lib o'tdi. Unda Bosh vazir o'rinbosari, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Svetlana Inamova mustaqil hayot bo'sag'asida turgan bitiruvchilarni tabriklab, esdalik sovg'alarini topshirdi.



Jizzax viloyati hokimi Ubaydullo Yamonqulov O'zbekiston badiiy akademiyasiga qarashli litseyning 8-sinf o'quvchisi Sobit Musurmonovni ko'rgazmasi bilan qutlayapti.



A z i z tengdoshlar, «Kamolot» YIH tomonidan «Yozni «Kamolot» bilan!» loyihasi asosida respublikamiz miqyosida ko'plab ibratli tadbirlar amalga oshirib kelinayotganidan xabaringiz bor.

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumani mahallalarida ham ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 29-, 146- hamda 243-maktablar qoshida sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil etildi. Ularda uch mavsumda ja'mi 1125 nafar mahalla yoshlari miriqib dam oldilar.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni yoshlarning turmush tarziga singdirish, umumiy ish qobiliyatini oshirishga yordam berish, ularni turli o'yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish maqsadida ommaviy sport o'yinlari o'tkazib kelinmoqda. Ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida, «Birinchil tibbiy yordam» hamda «Tibbiy patronaj» mashg'ulotlarni talabalar hamkorligida

boquvchisini yo'qotgan qariyalar holidan xabar olib, ularni profilaktik nazoratdan o'tkazayptilar.

Loyiha doirasida o'tkazilgan yana qiziqarli tadbir yoshlarning

bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, intellektual, ma'naviy salohiyatlarini oshirish hamda chet tillarini o'rganishlariga yordam berish maqsadida o'tkazilgan «Til o'rganamiz» loyihasi bo'lib, mahalla yoshlari bunday mashg'ulotlarda katta qiziqish bilan ishtirok etmoqdalar. Mashg'ulotlarni O'zbekiston Milliy Universiteti talabalari olib borishyapti. Mahalla yoshlarini bunday mashg'ulotlar bilan toliqtirib qo'ymay, madaniy dam olishlariga ham alohida ahamiyat berilyapti. Ular huzuriga «Ko'chma kino», «Ko'chma teatr»lar kelyapti. Shuningdek, hayvonot bog'iga hamda turli muzeylarga sayohatlar uyush-

**«KAMOLOT» YOZDA HAM BOLALAR BILAN**

o'tkazib kelinmoqda.

Shuningdek, giyohvandlik va OITSning ayanchli oqibatlari haqida oliy o'quv yurt talabalari batafsil so'zlab beryaptilar. Talabalar mahallalarga chiqib,

tirilyapti.

Bir so'z bilan aytganda, «Kamolot»chilar o'qishda ham, dam olishda ham doimo bolalar bilan birgalar.

Nigora  
MIRSODIQOVA,  
Toshkentdagi  
315 - maktabning  
10 - «B» sinf  
o'quvchisi.





Assalomu alaykum, aziz uchun ham qadri bo'lib qolgan qo'limdan qo'ymayman. ikkinchi oyi ham boshlandi. qo'lda kitob yoki gazeta mazza qilib mutolaa Men yaqinda sevimli bag'ishlab «Tong she'r yozdim. Uni respublikadagi tengdoshlarimning hukmiga

Sevimli mashg'uloting,  
Gar ne deb so'rasalar.  
Hech o'ylanmay aytardim,  
«Tong yulduzi»n maqtardim.

Eng sevimli gazetam,  
Unda namoyon olam.  
She'r, hikoya yo ertak,  
Sportmi, qaysi kerak?

## YOZO' TMOQDASOZI




tahririyat xodimlari! Men oilamiz ushbu gazetani sira ham Mana, yoz faslining Ayni jazirama paytida bilan salqingina uyda qilishga ne yetsin! g a z e t a m g a yulduzi» nomli sizlarning va b a r c h a havola qilayapman.

Har bir sahifa a'lo,  
Kasb etadi zo'r ma'no.  
O'qisam yayrar dilim,  
Oshaverar bilimim.

Nodira YUSUFBOYEVA,  
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi  
Abdulla Qodiriy nomli maktabning  
4- «D» sinf o'quvchisi.

Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanida joylashgan 29- maktabning 7-sinf o'quvchisi Javlon INOYATOV esa yoz fasliga bag'ishlab, ajoyib rasmlar chizib yuboribdi.



## «KATTA QIZ» BO'LIB QOLIBMAN



Men Beruniy nomli 3-maktabning 6- «G» sinfida o'qiyman. Ta'til kunlari mazza qilib o'rtloqlarim bilan o'ynab, kunning qanday qilib kech bo'lib qolganini ham sezmay qolayapmiz. Men sport turlaridan karate, u-shu, taekvando turlariga juda qiziqaman. Yana, velosiped haydashni juda ham yoqtiraman. Dadam olib kelib bergan velosipedni hayday olmayapman, chunki endi katta qiz bo'libman-da... velosipedga sig'mayapman. Dadam menga boshqasini olib berishga va'da berdilar. Ana shundan keyin mazza qilib velosiped uchamiz. Men

tikuvchilikka ham qiziqaman. - Qiz bolaning har narsani bilgani yaxshi, qo'lingda nechta hunaring bo'lsa ham ozlik qiladi, - deydilar oyim. Shu bois ham men yozgi ta'til mobaynida munchoqlar bilan tikish hunarini ham o'rganmoqchiman.

Maftuna RAHMONOVA,  
Jizzax viloyati, Zafarobod tumani.

## O'ZINGIZNI TEKSHIRIB KO'RINGI

Aziz bolalar, bilasizlarmi, odamning ovqat yeyishiga qarab, uning fe'l-atvori qay darajada ekanligini bilib olish mumkin ekan. Quyidagilarni o'qib chiqsangiz, bunga o'zingiz ham amin bo'ladingiz.

1. Agar odam tanlamasdan ochko'zlarcha ovqat yesa, bu uning fe'li juda og'irligidan dalolat beradi.
2. Ovqatni tez-tez, ammo tanlab yeydigan odamlar chaqqon va yaxshi ishlashar ekan.
3. Sekin, me'yorida, did bilan ovqatlanuvchi odamlardan yaxshigina tashkilotchilar chiqadi.
4. Agar odam dam olib-dam olib ovqatlansa, unda ishbilarmonlik qobiliyati yuksak bo'ladi.
5. Agar ishtahasiz, beparvo ovqatlangan odamni uchratsangiz, bilingki, u ishda, o'qishda ham mana shunday sust harakat qiladi.

### Odamlar Arastudan:

-Sen boshqalardan nimang bilan farq qilasan, - deb so'raganlarida, u:  
-Ular yemoq uchun yashasalar, men yashamoq uchun yeyman, - deb javob bergan ekan.

## O'QITUVCHIM

O'qituvchi sinfda,  
Qo'lida gul bir dasta.  
Ehtiyotlab ularni,  
Guldonga soldi asta.

So'ng bildik o'qituvchi,  
Nega xursand ekanin.  
Direktor bayram oldi,  
Diktant yozing deganin.

Qaddimizni bir rostlab,  
Yozayapmiz bir tekis.  
Tugadi-ya axiyri,  
Ishimiz bo'lib to'kis.

Ustoz so'zlab, tik turib,  
Nahot charchab qolmadi.  
Mehr-la boqib kulib,  
Hech qovog'in solmadi.



Zohidjon BOTIROV,  
Qirg'iziston respublikasi,  
Jalolobod viloyati, Oqqo'rg'on  
qishlog'idagi 10-o'rta  
maktabning 6-"V" sinf  
o'quvchisi.

Jiyancham Manzuraxon,  
O'ynab sira to'ymaydi.  
Qo'llarimdan tortqilab,  
O'ynamasam, qo'ymaydi.  
O'zi judayam shirin,  
Lek uni aldash qiyin.  
Xarxashani boshlaydi,  
Deya: «Chiloyli chiyim».  
Xolam qo'ldan qo'ymaydi,  
Erkalatib, to'ymaydi.  
Uyqulari beg'ubor,  
Qalbida umidlar bor.

## ASAL QIZ



Ma'mura AHMEDOVA,  
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 275-  
maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.

Ta'til mazza-da, ayniqsa, yozgi ta'til. A'lochi-yu o'qishni ko'pam xush ko'rmaydigan o'quvchidan so'rang, bir xil javob olasiz. Yozgi ta'til zo'r. Uni haqiqiy ma'noda zo'r bo'lishi o'zimizga bog'liq. Ammo «dangasalik» degan so'z ham borki, u bizni tez-tez «yo'qlab» turadi. Yaqindagina ta'tilda mazza qilib dam olaman, xohlagan ishimi qitaman, televizor ko'raman, koptok tepaman deb o'ylagan edim. Biroq, bu rejalarimni maktabimiz direktori Izmaylova Aliye Suleymanovna bilib olibdilar shekilli, meni maktabda tashkil etilgan to'garaklarga kelishimni tayinladilar. Avvaliga xohlamadim, keyin o'rtloqlarim bilan borishimga to'g'ri keldi.

## TATIL HAM O'QISH

Ana o'shanda ko'rdim ta'til davomida ham maktabimiz o'quvchilar bilan gavjum ekanligini. Ustozlarimiz bekorga aytishmas ekan-da, «ta'til ham o'qish», deb.

Men poytaxtimizning Hamza tumanidagi 231-maktabda o'qiyman. Ta'til kunlarimiz maroqli, mazmunli o'tishi uchun ustozlarimiz bir nechta to'garaklar tashkil etishgan. Jumladan, «Ranglar jilosi» to'garagini ustozimiz Asqarova Zamira O'rinbosarovna juda qiziqarli o'tkazadilar. «Uvlekatelniy mir skazok» («Ertaklarning sehrli olami») to'garagini esa Snegiryova Galina Mixaylovna boshqaradilar. Unda o'quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilib, yaxshilik va yomonlik haqida o'z fikrlarini bildirib, qahramonlar suratlarini chizishga, yumshoq o'yinchoqlar yasashga harakat qiladilar. «Yengil atletika» to'garagini esa o'qituvchimiz Valiyeva Nargiza Ramezovna olib boradilar. Unga sportga qiziqqan bolalar qatnashishadi.

Shuningdek, maktabimizda «Yozgi maydoncha» tashkil etilgan. Unda bolalar sport musobaqalarini, turli tadbirlarni uyushtiradilar. Bu ishlarga Inamova Nilufar Axroyamirzayevna rahbarlik qiladilar. Maydoncha hamisha bolalar bilan gavjum.

Xullas, ta'til davomida ham maktab bag'ridamiz. U bizni hamisha, hamma vaqt yaxshi kutib oladi. Buning uchun bizdan zerikmayotgan, charchamayotgan ustozlarimizga rahmat, deymiz.

Alisher ABDULLAJONOV.



## Bayram taassurotlari



«Niyating - hamrohing», deb bejiz aytishmaydi. Bolalikdagi shirin orzular kuni kelib, ro'yobga chiqar ekan. Kimdir uchuvchi, kimdir shifokor, yana kimdir tadbirkor bo'lishni orzu qiladi. Agar inson orzusi yo'lida o'qib izlansa, albatta o'z kasbining ustasi bo'ladi. Men ham yoshligimdan ota-onamning kasblari - jurnalistikaga mehr qo'rganman. Bolaligimdan oq dadamning ishxonalari tez-tez borardim. Ularning do'st-u birodarlari ham menga ancha tanish bo'lib ketishgandi. Xastalikdan so'ng vafot etgan dadamlarning yo'qligiga mana o'n uch yildan oshgan bo'lsa-da, jurnalistika olamida Mirzakarim aka va Mukarrama opaning «farzandi» bo'lib yuribman. Ota-onam, ukam Muzaffar nafaqat o'zlari uchun, balki biz uchun ham obro' topishgan ekan. Men ularga minnatdorchiligimni bildirib, ruhlari shod bo'lsin, deyman. Nasib qilsa, ota-onamning yuzini yerga qaratmay, yetuk jurnalist bo'laman. Bu kungi kasb bayramida ular uchun ham quvonishim shart...

sohiblariga o'z tabriklarini yo'lladilar. Jumladan, Svetlana Inamova «Bugungi kunda Matbuot va ommaviy axborot vositalarining jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyos. Ular siz-u bizning hayotimiz



## JURNALIST - SAODAT DARAKCHISI

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi 27-iyun Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan respublikamizda xotin-qizlar faoliyatini yoritishda ilg'orlikka erishayotgan iste'dodli, faol, tashabbuskor jurnalistlar uchun bayram tadbirini tashkil qildi. Bayramda Senator, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisi S.Inamova, O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi raisi Mamatqul Hazratqulov, Respublika «Nuroni» jamg'armasi Ayollar guruhi raisi Hosiyat Yoqubjonova, O'zbekiston Televideniyesi raisi o'rinbosari F.Ro'ziyev, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi raisining o'rinbosari O'.Jo'rayev ishtirok etib, oltin qalam



ko'zgusi. Biz ana shu ko'zguga boqib, o'zligimizni taniyimiz... Ayollarning hayotini, istiqlol yillarida erishgan yutuqlarini katta iste'dod bilan yoritilganligi, yorqin ijodiy faoliyati uchun jurnalistlarni rag'batlantirish lozim. Chunki jurnalist - saodat darakchisidir. Shunday ekan, hamrohingiz odil so'z bo'lsin. Bayramingiz

muborak, a z i z jurnalistlar», dedi. Tantanada «Shuhrat» medali sovrindori, baletmeyster Noila Ortiqova rahbarligidagi «Bulbulcha» ashula va raqs ansambli qatnashchilari chiroyli raqslarga xirom aylab, yig'ilganlar ko'ngliga ko'tarinkilik baxshida etishdi.

Tadbirda viloyatlarda gazeta, radio, televideniylarda samarali



yoshlar qo'mita nazariga tushib, munosib taqdirlandilar. Prezidentimizning yoshlarga ko'proq e'tibor berayotganligi ham bejiz emas. Chunki qiziqqon, shijoatli va g'ayratli yoshlar har jabhada o'zini ko'rsata oladi.

Muharrama PIRMATOVA.  
Suratkash: Davron AHMEDOV.

- Sportning boshqa turlariga emas, nega aynan kikkoksingga qatnayapsiz?

- Oynayi jahon orqali jahon chempioni Muhammadqodir Abdullayevni ko'rsatishganida, ularga juda juda havasim kelgandi. Bir kuni bu haqida dadajonimga aytgan edim, ular meni maktabimiz qoshida tashkil etilgan «Nurbek» kikkoksing to'garagiga

Jizzax viloyatining lashgan Mirzo Ulug'bek tabida o'quvchilarida tahsil oladilar. «Nurbek» nomli kikkoksing klubining 4-«G» sinf Basimov ana shu

Zarbdor tumanida joynomli 5-umumta'lim maktabida o'zbek va qirg'iz tilla-Ta'lim maskani qoshida boksing klubi tashkil o'quvchisi Hayitboy klub a'zolaridan biri.



Kim ham buni xohlamaydi deysiz, ammo yoqalashish halol bo'lishi lozim. Yengildingmi, buni mardlarcha tan olishing kerak, yo'qsa, sha'ningni saqlolmaysan. Biz ham do'stlarim bilan unda-bunda yoqalashib turamiz, ammo kikkoksing usullarini oddiy yoqalashishimizda qo'llamaymiz.

-Nimalarga qiziqasiz?

-Ona tili, o'qish, matematika fanlariga qiziqaman. Sinf rahbarimiz Qimmat Abdurashidova bizga ko'p narsani o'rgatadilar. Qiziqarli kitoblarni o'qib beradilar. Ayni vaqtda ta'tilda bo'lsak ham Sidiq,

## «NURBEK»NING KICHKINA BEGI

yetaklab keldilar. Bu yerda menga o'xshagan bolalar ko'pchilikni tashkil qilgan ekan. Murabbiyimiz Ne'mat

### Kelajak qanotlari

G'aybullayev menga kikkoksing dangasalikni xushlamaydi, agar qunt bilan shug'ullanmasang, kelajakda yaxshi sportchi bo'lolmaysan, dedilar. Shu bois ham ushbu sport turini qunt bilan o'rganishga harakat qilayapman. To'garagimizda Zoyir Jumayev, Qo'narboy Yaxshilikov singari kikkoksing ustalari ko'pchilikni tashkil qiladi.

-Nega o'g'il bolalar yoqalashishni yaxshi ko'rishadi?

-O'z sinfining «shef»i bo'lish uchun-da.

Islom, O'g'iloy, Muqaddas, Shahnoza kabi sinfdoshlarim bilan birgalikda ko'plab kitoblar mutolaa qilayapmiz. «G'uncha» jurnali, «Tong yulduzi» gazetasi doimiy hamrohimiz. Jurnaldagi she'rlar, hikoyalar, gazeta sahifalaridagi sportchi bolalar haqidagi maqolalarni miriqib o'qiyapmiz.

-Do'stlaringizga tilaklaringiz...

-Ular ham albatta biron bir sport to'garaklariga qatnashishsin. Oyijonim aytganlaridek, yelkalari keng, bo'yleri uzun haqiqiy beklar bo'lib voyaga yetishadi. Kelajakda Muhammadqodir Abdullayev, Olmos Yusupovdek mohir sportchi bo'lish orzusi bilan yashayotgan Hayitboyning kikkoksing bo'yicha bir necha bor tuman hamda viloyat birinchiligini qo'lga kiritganini eshitib, quvondik. Qirg'iz, rus, o'zbek tilini mukammal o'zlashtirib, sinfining faxriga aylanayotgan bo'lg'usi sport ustasiga yanada yuksak parvozlar tilab, xayrlashdik.

Jamila ERDONOVA.





Aziz bolajonlar! Qo'limdagi bu kitob shu qadar qiziqki, uni o'qiganim sari o'tmish sirlariga guvoh bo'layotganimni anglab borayapman. Bu sirlardan sizlarni ham ogoh qilmoqchiman. Ma'lumki, yozuvga yetib kelgunimizcha uzoq yo'lni bosib o'tgan tariximizda aytilishicha, bundan bir necha ming yil ilgari belgilar qo'llanila boshlagan. Bu qariyb olti ming yil ilgari eramizdan oldingi to'rtinchi ming yillikda sodir bo'lgan, deb hisoblanadi. Biroq, 1961-yili Transilvaniyada, Terteriya shaharchasi

(Ruminiya) yaqinida arxeologlar juda ham ko'p sirli rasm-belgilar chizilgan 3ta

sopol taxtacha topishdi. Bular 7 ming yillik o'tmishga ega yozma yodgorliklar edi. Odamning tajribasi va bilimi ortgani sari belgilarni yodda saqlash va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Bevosita aloqa bog'lash yo'li bilan buni amalga oshirish qiyin emasdi. Biroq, bu holda inson xotirasining mukammal emasligi tufayli ko'p axborotlar esdan chiqib qolgan. Asosiy to'siq hisoblangan fazo va vaqtdan yozilgan so'zgina ustun kela olardi. Buyumlardan dastlab mnemonika vositalari yoki «eslatuvchi» vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu vositalar fikrni anglatmas, balki uni faqat eslatardi. Biror narsani eslab qolish uchun ro'molning uchini tugish odati shundan qolgan.

So'ngra, buyumlarga aniq ma'no berila boshlagan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos signallar, shartli belgilar bo'lib hisoblangan. Xatcho'pga ma'no birkiritib qo'yishning barobarida «buyumli yozuv» dunyoga kelgan. Cho'pxatga yoki daraxt tanasiga o'yib belgi solish tugunlar, tizimchalar, urush e'lon qilish vaqtida esa kamon o'qi kabi buyumlar shartli belgi- «buyumli yozuv» namunalardir. Xatcho'plar odatda taqvim sifatida ham qo'llanilgan. Unga kunlar, haftalar soni o'yib yozilgan. Qarz shartnomalarida tilxat o'rni xizmat qilgan. To'g'ri hisob-kitob uchun hisoblash tizimchalari qo'llanilgan. Hozirda perulik cho'ponlar Lotin Amerikasi va Afrikaning ba'zi xalqlari foydalanadi. Eramizdan oldingi V asrda yashagan qadimgi yunon tarixchisi Herodot hikoya qilgan Doro taqvimi bunga misol bo'la oladi. Herodotning ta'kidlashicha, Eron shohi Doro I Skifiyaga yurish qilganida Dunay daryosiga maxsus qurilgan ko'prikdan o'tgan. Ko'prikn saqlash, qo'riqlash uchun Doro o'z ittifoqchisi bo'lmish ioniyaliklarni qoldirgan. Ularga oltmish tugunli belbog' berib, bunday degan:

«Bu belbog'ni olinglar, endi gapimga quloq solinglar: mening skiflarga qarshi chiqqanimni ko'rishingiz bilanoq, har kuni bittadan tugunni yechaveringlar. Agar

tugunlar bilan ko'rsatilgandagi kunlar tugasa-yu, men shu vaqt ichida qaytmasam, o'z vatanlaringizga jo'nayvering. Hozircha ko'prikn qo'riqlanglar va uni mumkin qadar omon saqlashga harakat qilinglar. Bu ishingiz bilan menga katta yordam ko'rsatgan bo'lasizlar».

Sibir, Gveniya, Sharqiy Afrika xalqlari ham tugunlardan iborat taqvimdan foydalanaganlar. Penna Vampumi XVII asr oxiridagi muhim siyosiy hujjat

namunasidir. Penna Vampumi o'rtasiga ikkita qora shakl-qo'l ushlab turgan kishilar shakli tushirilgan oq belbog' bo'lib, uni Leninnape qabilasidan bo'lgan hindlar o'rtasidagi tinchlik va hamkorlik garovi sifatida taqdim qilganlar.

Peruning azalgi aholisi inklarning tugunlardan iborat – maktubi-Kipu-buyumli yozuvning ajoyib namunasi. Kipuda buyumli yozuvning hamma imkoniyatlari ochib berilgan. Kipu chalkash-chulkash bog'langan, tugilgan tizimchalar osilgan yo'g'on yoki tayoqchalardan iborat maktubdir. Tizimchalar va tugunlarning soni, ularning hajmi joylashishi va rangi turli ma'noni anglatgan. Kipuning og'irligi ba'zan 4 kilogrammgacha yetgan. Bo'yalmagan tizimchalar sonli hisob uchun, rang-barangi esa murakkab xabarlar uchun qo'llanilgan.

Inklar maktubi-kipu sirini ochishga qiziqqan olimlarning fikrlari turlicha. Ba'zi olimlar kipuga qonunlar majmui, solnomalar, hatto she'rilar yozilgan bo'lishi mumkin desa, boshqalari murakkab yozuvlarni tugunlar va rang-barang tizimcha yordamida amalga oshirish mumkin emas, demoqdalar.

Nafaqat qadimgi xalqlar, balki o'zimiz ham hozirgi kunda buyumli yozuvdan foydalanayapmiz.

Masalan: Suv yo'llarida xatarli joylarni ko'rsatib turadigan suz'ich – bakenlar, mayoqlar va signal bayroqchalari – dengizda, svetofor va semoforlar – quruqlikdagi yo'llarda, signal lampochkalari – har xil priborlarda qo'llaniladi.

Aziz bolajonlar! Bularning hammasi «axborot xossalari» va perulik cho'ponlarning tizimchalariga «qarindosh»dir.

Zukko, bilimga chanqoq bolajonlar! Gazetamizning har bir sonini diqqat bilan kuzatib boring. O'tmish sirlariga ochqich topishga qiziqsangiz, «Yozuvlar-o'tmish sirlari shohidi» sahifasini e'tiborsiz qoldirmang.

Zamira SAFAROVA.

## OTXONADAGI DEV

(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda bir uyda chol uch o'g'li bilan yasharkan. Cholning otxonasida bir ona ot bo'lib, uning tuqqan bolasini doim dev olib ketar ekan. Bir kuni chol o'g'illarini chaqirib:

- O'g'illarim, bilasizki, birgina otimiz bor. U tug'ishi bilan bolasini dev olib ketadi. Bu safargisini ham olib ketmasligi uchun uni qo'riqlash lozim. Qay biringiz uni qo'riqlaysiz? - deb so'rabdi.

- Men qo'riqlayman, - deb javob beribdi katta o'g'il. U kechasi allamahalgacha toychoqni poylab yotibdi. Lekin tongga yaqin uxlab qolibdi. Ertalab qarasa, toychoq ini dev olib ketibdi. Oylar o'tibdi. Ot yana bolalabdi. Endi uni qo'riqlash navbati o'rtancha o'g'ilga kelibdi. Lekin u ham uyqusini yenga olmay, uxlab qolibdi. Dev yana toychoqni olib ketibdi. Ota o'g'illaridan xafa bo'libdi. Shunda kenja o'g'il:

- Endi mening navbatim. Men qo'riqlayman, - debdi. - Sendan katta bo'la turib, akalaring qilolmagan ishni sen qanday uddalaysan? - debdi otasi.

Shunga qaramay, kenja o'g'il otxonada naybatchilik qilishga jazm qilindi. U o'zi bilan qilich va tuz olib yotibdi. Kechasi uyqusi kelganda, qilich bilan qo'lini kesib, tuz sepib qo'yibdi. Tuz sepilgan joy achishib, uyqusi qochibdi. Yarim kechasi devning kelayotganini sezib poylab turibdi-da, boshini shartta kesib tashlabdi. Ertasi kuni otasi qo'rqa-pisa otxonaga kelibdi, qarasa, o'g'li ham, ot ham, toychoq ham joyida emish. Ota quvonib ketib:

- Sen uddalading, bolaginam, - debdi uni bag'riga bosib, - endi bor bisotim senga meros bo'lib qoladi.

Shunday qilib, ular devdan qutilib, murod-u maqsadlariga yetishibdi. Ana ko'rdingizmi, bolajonlar, ozgina uyqudan voz kechib qilingan mehnat, albatta baxt keltirar ekan.

Sangimoh HASANOVA,

Buxoro viloyati, Peshku tumani, Ko'lbaxt qishlog'idagi 40-maktabning 6- «A» -sinf o'quvchisi.

Sport bilan muntazam shug'ullanadigan yoshlarning tashqi «Sog' yurak – tog' yurak» ko'rinishi, fe'l-atvori ham boshqalardan biroz ajralib turadi, menimcha.

Farg'onalik tengdoshimiz Abror Mamadaliyevni ilk bor ko'rganimdayoq, sportchi bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Adashmagan ekanman, u sportning yengil atletika turi bilan 12 yoshidan muntazam shug'ullanib kelarkan. Shu kunga qadar talaygina nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib,

ko'plab sovrinlarni qo'lga kiritishga ham ulguribdi. 2001-yilda Farg'onada bo'lib o'tgan «Umid nihollari» musobaqasining respublika saralash bosqichlarida qatnashib, faxrli 1-o'rinni egalladi.

Abrodagi sportga bo'lgan ishtiyoqni o'z vaqtida payqagan ustozlari Ruslan Izetov uni 2003-Olimpiya zahiralari kollejiga olib yilda Toshkentga, Respublika shunchaki havas deb qaragan keldi. Avvallari sportga hayotining mazmuni ekanligini Abror keyinchalik bu soha bo'lib o'tgan respublika tushunib yetdi. Samarqandda kifoyalangan bo'lsa, 2003-yili chempionatida 3-o'rin bilan bag'ishlab o'tkazilgan «Kross» mustaqilligimizning 12 yilligiga egallab, bir pog'ona yuqoriga musobaqalarida faxrli 2-o'rinni kifoyalaniq qolmay, o'z ustida ko'tarildi. Bu g'alabalar bilan yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston tinimsiz ishladi. Nihoyat, 2004- kiston chempioni» unvoniga chempionatida ilk bor «O'zbe- Qirg'izistonning Bishkek sazovor bo'ldi. Shu yili turnirga yo'l olgan umidli shahrida o'tkazilgan Xalqaro sportchimiz u yerdan «Markaziy Osiyo chempioni» bo'lib qaytdi. Shu yilning mart oyida yoshlar orasida musobaqada qatnashib, 1000 metrlik masofaga to'siqlar osha yugurib, O'zbekiston rekordini o'rnatdi.

Sportning orqasidan nafaqat yurtimiz, balki qo'shni davlatlar shaharlari ham kezdi. Buxoro, Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Andijon, Bishkek, Chimkent, Olmaota shaharlarida bo'lib o'tgan musobaqalarda ham muvaffaqiyatli qatnashdi. Qo'lga kiritgan yutuqlari uchun ustozlari Svetlana Vimslovna, Vyacheslav Vasilevich hamda birinchi murabbiyi Ruslan Demirovichdan behad minnatdor.


Abror hozirda Respublika Olimpia Zahiralari kolleji boshlang'ich tashkiloti yetakchilar Kengashi raisi, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Chilonzor tuman bo'limi «Sport va jismoniy tarbiya» soha yetakchisi bo'lib ish yuritib kelmoqda. Kelajakdagi yagona orzusi ota-onasi, ustozlari ishonchini oqlab, O'zbekistonning dovrug'ini sport orqali dunyoga taratishdir. Tengdoshlariga ham shuni maslahat beradi: «Maktabda a'loga o'qing va yana albatta sport bilan do'stlashing!»

Suhbatni yakunlar ekanman, orzulari oydin tengdoshimizga sportda omad va zafarlar tiladim.

Nargiza SAYDULLAYEVA,

«Yangi avlod» media markazi a'zosi.

## YOZUVNING TARIXI



O'qi, qiziq!



# SHUKUR BURXONNING TUTINGAN O'G'LI

*O'zbek milliy teatrimiz darg'alaridan biri, betakror va benazir san'atkor Shukur Burxonning tutingan o'g'li kimligi hammangizni qiziqтира kerak-a, aziz bolajonlar? Bilganlar taniqli rejissyor Hamid Qahramonni Shukur Burxonning tutingan o'g'li derdi, bilmaganlar, ota-bola deyishardi. Bu «ota-bola»likning esa tarixi ancha uzun. Keling, yaxshisi bir boshdan so'zlab bera qolay:*



1938-yilda Qo'qon bilan Buvaydaning orasida joylashgan Jilva qishlog'ida dunyoga kelgan Hamid aka bolaligini elas-elas eslaydi. 3 yoshli chog'ida o'qituvchi bo'lib ishlagan dadasi uni bo'yniga mindirib, maktabga olib kelishi va birinchi partaga o'tqazib qo'yishlarini, bir varaq qog'ozga «O» harfini qator qilib yozib o'tirishlarini eslab, kattalarni lol qoldirgandi. Otasi ot minib urushga ketayotganida, uni mahkam bag'riga bosib, «O'g'lim, men Qo'qon bozoriga ketyapman, senga toychoq olib kelaman», deya xayrlashgani va bir oygacha, «Aldoqchi dadam, toy olib kelmadilar», deya xarxasha qilgani ham xotirasida bir umrga muhrlanibdi.

1943-yili «toychoqqa ketgan» dadasining bedarak yo'qolgani haqida maktub kelganda, Hamidjon endigina 5 yoshga qadam qo'ygandi. Otasini qo'msab, yig'layotgan bolalarini qanday ovutishni bilolmagan ona, bir kuni ularga: «O'choqning tuynugidan osmonga qarasangiz, oymoma ko'rinadi. Dadangiz o'sha yerda», deydi.

Opasi, singlisi va Hamidjon navbatma-navbat osmonga termulishar, oy yuzidagi dog'larni o'ng qo'lini oldinga cho'zib, mag'rur turgan otasiga o'xshatishardi. Oy tuynukdan ko'rinmay qolsa, oymoma dadamni olib ketdi, deya yana xarxashani boshlab yuborishardi. Onaizor esa ularni ovutolmay garang bo'lardi...

Suronli urush, ochlik, qahatchilik yillari edi. Nochor qolgan ona farzandlarini bolalar uyiga topshirishga majbur bo'ladi. O'zi ham shu yerga ishga kiradi. Hamidjon o'ta qiziquvchan, intiluvchan bola bo'lib kamol topadi. Bir kuni uni bolalar uyi

devorlariga rasm chizayotgan musavvirning yonida uchratsangiz, boshqa kuni musiqa xonasidan topardingiz. Piano, rubob, okkardion, gitara kabi cholg'u asboblari chalishni o'zi mustaqil ravishda o'rgana bordi. Chunki bolalarga bu asboblarni chalishga ruxsat berishmas edi-da.

Shuning uchun ham kunduz kuni musiqa xonasi derazasining chetlariga qoqilgan mixlarni oxistagina sug'urib olib, oynasini omonatgina o'matib qo'yardi. Hamma uxlaganda esa deraza orqali xonaga kirib, tong otguncha piano chalib chiqardi...

## ISH BERGAN SHO'XLIK

Bilmadik, Hamid akaning bolalikdagi bu qiliqlarini sho'xlik deb atasak to'g'ri bo'ladimi, yo'qmi, lekin ular keyinchalik juda asqotdi. O'rta maktabni ham, Mannon Uyg'ur nomidagi san'at oliyog'ini ham muvaffaqiyatli tamomlagan san'atkorimiz o'zi yaratayotgan filmlar,

spektakllarning eskizlarini ham, musiqali bezash ishlarini ham o'zi bajaradi. Qanday ishga qo'l urmasin, astoydil kirishadi. «21-Mehribonlik uyi»da san'atsevar bolajonlar bilan har yili Turkiyada o'tadigan «Xalqaro bolalar festivali»da ishtirok etishganini, o'zbekistonlik bolajonlar sahnaga chiqishganda, 20 ming tomoshabinning tik oyog'da turib qarsak chalganini Hamid aka faxr bilan eslab yuradi. Ayniqsa, bolajonlar bilan birga Pokistonning 50 yillik to'yi tantanalariga borishgani haqidagi hikoyasi bizni ham to'lqinlantirib yubordi:

-Islomobodda, Lahor shahridagi Al-Hamro ochiq konsert zalida konsert dasturlarimiz bilan qatnashdik, - deya hikoya qiladi Hamid aka. - Lekin yo'lda baxtsiz hodisaga uchradik. Shukurkim, bolalarga ziyon yetmadi, bir bolaning tirsagi, yana birining oyog'i shilinibdi, xolos. Lekin o'zimning ikki ko'zimdan boshqa sog' joyim qolmagandi hisobi. Birgina oyog'imning o'zi yetti joyidan singgan, 32ta tishimning bari to'kilib, ayrimlari milklarimga qadalib qolibdi. Hushumdan ketib, kelib yotibman-u, tantanani o'zim tasvirga tushiraman deb oyoq tirab olganman. O'sha davlatning sog'liqni saqlash vaziri shaxsan o'zi ko'rib, ruxsat bermagan.

Shunda, 3-qavatdan o'zimni tashlayman, deb turib olganman. Noiloj ko'nishgan, 4 nafar barzangidek yigitlar meni tibbiy zambilda ko'tarib yurishgan. Men esa yonboshlagan holatda tantanani tasvirga tushirganman. 20 mingdan ziyod tomoshabin tik turib, guldiros qarsak chalishyapti. Men esa ularni filmim uchun tasvirga tushiryapman. Keyin bilsam, madaniyat vaziri: «O'zbekistonlik san'atkor Hamid Qahramon o'z nomi bilan qahramon ekan, shunday holatda bo'lsa ham to'yimizni tasvirga olib, o'z yurtida ko'rsatmoqchi», deya e'lön qilib yuborgan va olqishlarning bari menga atalgan ekan...

## «OTAMDEK AZIZ INSON»

Hamid aka qalbidagi san'atga bo'lgan ishtiyoq bolalar uyida tarbiyalanayotgan chog'laridayoq uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. Bolalar uyining badiiy rahbari Mahmudjon Ziyoyev boshchiligidagi «Tohir va Zuhra»

## Bolalikka sodiq insonlar

spektaklini sahnalashtirmoqchi bo'lishganida, 11-12 yoshlardagi Hamidjon Tohirni emas, Qora Botir rolini tanlaydi. «Qora Botirning qilmishlarini qoralasamda, uning o'ktamligi, botirligi, dadilligi, salobat bilan qilich yalang'ochlab, ot choptirishlari juda



yo'qardi. Keyinchalik menga yoqadigan ana shu fazilatlar mujassam bo'lgan bir insonni uchratdim va u kishi bilan ota-boladek bo'lib qoldik. Har gal ota-onam haqiga Qur'on tilovat qilganimda, otamdek aziz bo'lib qolgan bu insonga ham bag'ishlayman», deya xotirlaydi Hamid aka.

Gap kim haqida anglagandirsiz? Ha, ha, xuddi o'zi, sevimli san'atkorimiz Shukur Burxon haqida. Bir mahallada yonma-yon yashagan bu insonlarning hayoti ham, ijodi ham chambarchas bog'lanib ketgan. Shukur akani so'nggi yo'lga ham o'g'il sifatida kuzatib qo'ygan Hamid aka u kishi bilan mahalla aylanib, uzoq-uzoq sayr qilishlari, ijodiy suhbat qurishlarini ko'p qo'msaydi.

## «HA-HA-HA» NIMA DEGANI?

Kulgu deysizmi, xulosa chiqarishga biroz shoshilmang. Bu taniqli rejissyorimiz Hamid Qahramonning bolalar uchun yaratgan hajviy ko'rsatuvi nomi bo'lib, «Hakil, hajv, hangoma» degan keng qamrovli ma'noni bildiradi. Bu ko'rsatuvda katta-kichik hajviy rollar ijro etib yurgan Hamid akaning shogirdlaridan ayrimlari o'z muxlislariga ega bo'lishga ham ulgurishgan. Marg'ilonda hech bir bayram yoki tantana yo'qki, 7 yoshli andijonlik qiziqchi Mashhurbek qatnashmagan bo'lsa. Dilafröz Mahmudova ismli shogirdi «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotini olganida Hamid akaning quvonganini bir ko'rsangiz edi?! Bunday holatni o'z kasbiga fidoyi bo'lgan, borlig'ini bolalikka baxshida qilgan insonlardagina kuzatish mumkin.

Yaqinda 45 yildan buyon telerejissyorlik kasbini ardoqlab kelayotgan Hamid akaning samarali mehnatlari munosib taqdirlandi. Jurnalistika sohasidagi «Oltin qalam» milliy mukofoti «Eng yaxshi rejissyorlik ishi uchun» rag'batlantiruvchi nominatsiyasi bo'yicha sovrindor bo'ldi.

Biz ham Hamid akani gazetamizning ko'p sonli muxlislari - o'g'il-qizlari nomidan samimiy qutlaymiz va yangi-yangi bolalarbop hajviy ko'rsatuvlar kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

**DAULAT BOY BO'LSA, BIZ-BOYMIZ!**

Otam o'ldi, otam-a,  
Shunday saxiy odam-a!

U paytlarda ko'p qavatli uylar o'rnida keng dalalar yastanib yotardi. Bizni maktabdan o'sha dalalarga kartoshka terгани, piyoz yoki sabzilarni yig'ishtirib olgani yordamga chiqarishardi. Darsdan keyin uyga kelib, choy idishni choyga to'latib, o'rtoqlarim oldiga yugurib borardim. Bir sinf bolalar keng dalani boshimizga ko'tarib, bir-birimiz bilan sho'xlik qilishib, aytilgan ishni bajarardik. Kech bo'lganda, o'sha choy idish ichiga o'zimga yoqqan po'sti yupqa, dum-dumaloq, tuproq isi kelib turgan kartoshkadan to'latib uyga kelganim hech esimdan chiqmaydi. Otajonim men keltirgan kartoshkani ko'rib, yana dalaga qaytarib yuborganlar.

-Bu kartoshka - davlatniki. Davlat boyisa, biz boy bo'lamiz. Davlat erta sovuq tushib qolayotgani uchun nochorlikdan sizlarni yordamga safarbar qildi. Har biringiz har kuni uyingizga shunchadan kartoshka tashib ketsangiz, davlat kambag'al bo'lib qoladi-ku! Uyimizda hozircha kartoshkamiz bor. Yurtda bo'lsa, davlatda bo'lsa, ko'nglimiz to'q bo'ladi. Shuning uchun beso'roq ko'chadan uyga narsa ko'tarib kelmagin.

Otajonim juda g'ururli, otajonim juda mehnatkash, otajonim juda...

-Buvi, she'r aytayapsizmi?

-She'rni biladigan bolam-a, bolam! Otamni gapirayapman, men otalar haqida bilasan-ku doim uzo-oq gapiraman.

**YOZILMAGAN KITOR**

Umida ABDUAZIMOVA.

Ota yurt deyman. Ota uyi deyman... Qiz bola palaxmon toshi. Tushgan joyini Vatan qiladi. Otalar esa o'z uyida, o'z makonida yashaydi.

-Buvi, nega Abrorni dadasi yo'q?

-Dadasi bor. Olloh ertaroq huzuriga chaqirib olgan... Hammamiz ham ketamiz aslida.

-Nodirni dadasi kasal...

-Nima?

-Xadicha ammam shunaqa dedilar-ku!

-Unda men endi senga she'r aytaman.

Mana bunday she'r:

**DADALAR**

-Mening dadamlar doktor,

-Mening dadam injener.

-Mening dadamlar yo'qdir,

Oyim doim "ishda" der.

-Dadam uydalar, kasal...

-Dadam zavodda master!

-Mening dadamni bo'lsa,

Buvin «piyonista» der.

-Buvi, buvijon! Zavod nima? Master-chi?

-Bo'ldi, savol bermagin. She'rimni oxiriga yetkazdirmading-a! Xullas, dadalar uyimiz ustuni. Panohimiz.

-Buvi, Murod buvamning dadasini aytib bering.

-Yana meni gapirtirayapsan-a! Endi ji-im, xayol surib ketaman degandim. Murod buvangning dadasi - mening buvam ham qizillar, oqlar zamonida bevaqt olamdan o'tib ketgan.

-Nega bevaqt? Bevaqt nima?

-Bevaqt - vaqtida emas degani. Bolalari yosh, hammasi «otam nima bersa, yeyman», «onam nima desa, qilaman», deb turgan paytda birdan ketib qolganiga aytiladi.

-Nega unaqa ketib qolganlar?

-Uff... Sen bilan gaplashib, senga o'tgan zamonlarni gapirib berib, o'zim ham zerikib ketdim. Buvam rahmatli mahsi-kovush tikkanlar. Onam eski zamonlar bo'lganda, men - Moskovchi Alishboyning qizi siz mahsido'zning o'g'liga tegmasdi, derdilar.

Otam esa, mening dadam mahsido'z bo'lsalar ham eng tozasidan tikardilar. Amirkonidan, derdilar. Amirkon - Amerikadan keltirilgan teri, degani bo'lsa kerak... Lekin baribir besh farzandni bir o'zi kosibchilik qilib emas, asosan uzum sotib boqarkanlar. Ishkomlari tilladek, husayni-yu hasayni uzumlardan sinib ketay derkan kuzda...

Bir kuni uylariga teri chopon kiygan ikki amaki kirib kelibdi.

-Bog'ingizni buzamiz. Zavodni kengaytiramiz,- deyishibdi.

Buvam albatta ko'nmabdilar. Ular dag'dag'a qilishibdi.

-Yer-davlatniki.

-Sendan so'rab o'tirmaymiz.

Buvam sal bo'shahibdilar:

-Bir oy kutinglar. Hosil pishsin. Uvol-ku, g'o'ra uzumlarni ildizi bilan sug'irib tashlasanglar.

-Ertagingni eshitishga vaqtimiz yo'q. Uvol degan so'z- eskilik.

-Buvi, so'zning ham eskicha, yangichasi bo'ladimi?

-U zamonlarda bo'lgan ekan-da! Ertasiga buldozer-

bilan kelishib, erta bahordan parvarishlangan ishkomlarni buzib, toklarni yerdan qo'pora boshlashibdi. Buvam bechora bir u so'rining tagiga, bir bu tokning panasiga yugurib, ularni to'xtata olmabdilar. Va... uch kun o'tib o'zlari ham yurolmay, ham gapirolmay, gung-soqov bo'lgan o'li-i-ib qolibdilar. O'shanda 1933-yil, iyun oyi ekan!

-Buvi, hozir nechanchi yil?

-Hozir 2006-yil, iyul...

-Endi unaqa amakilar yo'qmi?

Men uyimizda endi pishay deb turgan uzumlarni eslab, qo'rqa-pisa so'rayman.

-Yo'q albatta, yo'q! Imonli, e'tiqodli odamlar bor. Kambag'alparvar, mehnatkash odamlar bor. Ammo ularning hammasi va'zxon-u notiq bo'lib ketayotgani yoqmaydi-da!

-Va'zxon nima?

-Notiq degani. Gapdon degani. Istagan gapini gapirib, quloq-miyani yeyishi degani. Menga qolsa, hamma o'z vazifasini qilsin. O'quvchi o'qisin, to'quvchi to'qisin. Gap ko'p joyda baraka yo'qoladi, -derdilar buvim. Mana sen ham juda ko'p gapirayapsan. Hali uch yoshga ham to'lmagan bolaga shu-uncha gaplarni gapirib yurgan men - buving ham ahmoq!

-Yo'q, buvi, buvijon! Siz aqlli! Siz hammadan chiroyli.

Buvin entikib meni o'pib oladilar.

-Sizdan chiroy-li-ko'z-oyningiz!

-Nima?

-O'zingiz ko'zoynagingizni o'ynashga bermaysiz-ku!

-Voy, esim qursin, ko'zoynak yana uyda qolibdi.

-Tishingiz ham!

-Ha, tishim ham. Senga doim menga eslatib tur, deyman-ku shu tish bilan ko'zoynakni!

-Tishingiz yo'qligi bilinmaydi.

-Oldinda bor-da tishlarim. Orqadagisi esa yasama. Sening dadangga, amakilaringga alishganman ularni!

-Sochingizni qorasini buvamni kutishga!

-Juda balosan-a!

-O'zingiz doim aytasiz-ku, eshigimiz oldidagi shu o'rik, shu o'rindiq aytsin, ularni qanchalik kutganimni deb.

-Nima-nima? Gapimni yodlab ham olibsan-ku! Yana nimalarni yodlab olgansan?

-Buvang kech qolganda mulla buvam ularni urishmay, yaxshi keldingmi? Oldiga tomog'ini qo'y, deganlarini.

-Yana nimani?

-Yana, siz bundan battar xafa bo'lib, uyga yig'lab kirib ketganingizni.

-Keyin-chi?

-Keyin, buvam nega kulib kutib olmaysan, deb sizni quvib ketganlarini.

-Obbo, bilag'on-ey! Oyingga aytganlarimni ilib olibsan-da! Dadalarni doimo asrab-avaylash kerak. Kech kelsa ham yaxshi gapirib, kutib olish shart.

Bo'lmasa, ularning jahli tez chiqib ketadi. Keyin uyda urush bo'ladi.

-Biznikida urush bo'lmaydi. Chunki Siz borsiz, Buvijon!

(Davomi bor).

**OTALAR**



# AZIZ O'QUVCHI!

«Iqtidor» respublika iqtidorli o'quvchilar oromgohi har yili avgust oyi boshlarida faoliyat ko'rsatadi va unda mamlakatimizning viloyat, respublika va xalqaro olimpiadalarda sovrinli o'rinlar egallagan o'quvchilar dam olish bilan bir vaqtda respublikamizning eng ko'zga ko'ringan iqtisodchi, matematik, fizik, kimyogar olimlari bilan muloqotda bo'ladilar, ularning ma'ruzalaridan va amaliy mashg'ulotlaridan bahramand bo'ladilar.

Yozgi oromgoh davrida o'quvchilar har xil fanlar bo'yicha va sport, musiqa hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mana shu yo'nalishlar bo'yicha eng yaxshi natijaga erishgan o'quvchilar O'zbekiston Xalq Ta'limi vazirligi, Respublika Ta'lim Markazi, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati va «Tong yulduzi» gazetasi tomonidan ta'sis etilgan «Faxriy yorliq»lar bilan va homiylik, jumlagan, «DOSNEO» o'quv markazi tomonidan maxsus qimmatbaho mukofotlar bilan taqdirlanadilar.

Biz sirtqi olimpiadamiz g'oliblarini chin dildan tabriklaymiz.

Nomlari qayd etilgan o'quvchilar viloyatlar Xalq ta'lim boshqarmalari orqali «Iqtidor» respublika iqtidorli o'quvchilar yozgi oromgohiga rasmiy ravishda taklif qilinadilar va o'z viloyatlaridan taklif qilingan boshqa o'quvchilar bilan birgalikda tashkiliy tartibda yozgi oromgohga keladilar. Shuning uchun nomlari yuqorida qayd etilgan o'quvchilar yozgi ta'lim davrida viloyatingiz, tumaningiz Xalq ta'lim boshqarmasi va maktabingiz rahbariyati orqali qo'shimcha taklifni kuting va boxabar bo'ling.

«Iqtidor» respublika iqtidorli o'quvchilar yozgi oromgohi 2006-yil 2-avgustdan 2006-yil 12-avgustgacha bo'lgan davrda faoliyat ko'rsatadi.

**Sirtqi olimpiada tashkilotchilari:**  
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi  
Respublika Ta'lim markazi  
«Kamolot» O'zbekiston Respublikasi Yoshlari  
Ijtimoiy Harakati  
«Tong yulduzi» gazetasi  
«DOSNEO» o'quv markazi.

## Respublika sirtqi maktab olimpiadasi yakuni

Mana, gazetamiz sahifasi orqali olib borilgan iqtisodiy bilim asoslari, matematika, fizika va kimyo fanlaridan olib borilgan navbatdagi respublika sirtqi maktab olimpiadasining 1- va 2-sirtqi bosqichlari ham yakunlandi.

Biz sirtqi olimpiadamizda faol qatnashgan barcha o'quvchilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Biz sirtqi olimpiadaning yakuniy qismini Toshkent shahrida o'tkazib, g'oliblarni shu yerda taqdirlashni niyat qilgan edik va buni sizlarga «Tong yulduzi» sahifalari orqali ma'lum qilgan edik.

Biz sirtqi olimpiadamiz mavqeini yanada ko'proq o'quvchilarni jalb qilish maqsadida 1- va 2-bosqich g'oliblariga qo'shimcha mukofot tariqasida ularni «Iqtidor» respublika iqtidorli o'quvchilar yozgi oromgohiga 10 kunlik bepul yo'llanma bilan taqdirlashga qaror qildik.

№	O'quvchining ism-sharifi	Fan	Viloyat, tuman, maktab
1.	<b>Yahyo MO'MINOV</b>	Kimyo	Andijon viloyati, Shahrixon tumani, 53-gimnaziya-maktab
2.	<b>G'iyosiddin BAKIROV</b>	Kimyo	Andijon viloyati, Shahrixon tumani, 53-gimnaziya-maktab
3.	<b>Negmurod DONIYOROV</b>	Fizika	Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktab internati
4.	<b>Jamshidbek ISOQOV</b>	Matematika	Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumani, 165-maktab
5.	<b>Hamza FOZILJONOV</b>	Matematika	Andijon viloyati, Baliqchi tumani, 38-ixtisoslashgan maktab-internati
6.	<b>Hayotjon KENJAYEV</b>	Iqtisodiyot	Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktab internati
7.	<b>Nafisa OCHILOVA</b>	Iqtisodiyot	Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktab internati
8.	<b>Sardor QURBONOV</b>	Iqtisodiyot	Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15-maktab

Aziz bolajonlar! «Ta'til kunlarida oila a'zolarimni qanday shirinliklar bilan xushnud qilsam ekan», deya bosh qotirayotgandirsiz. Quyida sizlarga ajoyib tortlarning sirlarini berayapman. Siz ularni judayam mazali qilib tayyorlashingizga ishonaman.



## Limonli tort



**Kerakli masalliqalar:** 6 dona tuxum, 2 piyola shakar, 1 dona limon, 200 gr. saryog', 2,5 stakan un, 200 gr. smetana, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi, ozgina tuz va 1ta shokolad.

**Tayyorlanishi:** Tuxum sarig'ini 1 piyola shakar bilan ko'pirtiring va unga soda, smetana, un qo'shib, xamir qoring. 3ta kulcha pishirib, orasiga krem surtib, ustma-ust qo'ygach, tepasini qirg'ichdan chiqarilgan shokolad bilan bezating.


**Kremning tayyorlanishi:** Tuxumning oqini yaxshilab ko'pirtirib, 1 piyola shakar bilan limon suvini qo'shing. Agar istasangiz, 1 piyola maydalangan yong'oq qo'shsangiz ham bo'ladi.

## Yong'oqli tort

**Kerakli masalliqalar:** 400 gr. margarin, 3,5 stakan un, 200 gr. saryog', 0,5 banka quyultirilgan sut, 1 piyola suv.

**Tayyorlanishi:** Margarinni unga qorib, 1 piyola suv qo'shing-da, aralashmadan xamir tayyorlang. Uni 6 qismga bo'lib, 2 soat sovutgichda saqlang. So'ng, har bir kulchani yoyib, pishiring. 5ta kulcha ustiga krem surtib, 6-kulchani ustiga kremni yong'oq bilan aralashtirgan holda suring.

**Krem tayyorlash:** Sariyog'ni quyultirilgan sut bilan aralashiring va kremingiz tayyor.



Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi.





O'n yoshimdan she'rlar mashq qilib turaman. «Kelajak tongi», «Mash'al» radioeshittirishlarida, oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Qo'shig'im jon qo'shig'im» ko'rsatuvlarida o'z ijod namunalarim va raqslarim

bilan ishtirok etaman. 2002-yildan Shermet Yormatov rahbarligidagi «Bulbulcha» ashula va raqs to'garagiga qatnayman. Shu sababli ham har yilgi konkurs va tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallayapman. 2002-yilda oktabrda bo'lib o'tgan «Zulfiya qizlari» tanlovida «Xorazmcha» raqsim bilan qatnashib, tumanda birinchi o'rinni olganman. 2003-yilda esa o'shanday tadbirda «Uyg'urcha» raqsim bilan ishtirok etdim, 2003-yilda «Doira», 2004-yilda «Andijon polkasi» raqsini xirom aylab, yuqori o'rinlar sohibasi bo'ldim. 2005-yilning fevral oyida bo'lib o'tgan «G'azalxon yoshligim» ko'rik-tanlovida she'r va raqs bilan ishtirok etdim. 2003-yil, 7-avgustda men haqimda film-konsert yaratildi. Bu film «Yosh yulduzlar» ko'rsatuvida namoyish etildi. O'zim yozgan she'rlarim, raqslarim bilan ishtirok etganim, ustozim Shermet Yormatov iliq gaplar aytgani ko'rsatuv mavzusi

**Mustaqillik tengdoshlari**

birgalikda

yangiliklaridan

turaman. Mana, rasmlar

edi. Adabiyot va san'atni uyg'unlashtirib olib borayotganim sababli ham juda ko'p bayram va tadbirlarda katta-katta san'atkorlar bilan suratga tushaman, ular san'ati so'rab olib, maqolalar yozib albomimni ko'ring, Tohir Sodiqov, Mavluda Asalxo'jayeva, Obid Asomov, Ozoda Nursaidova va yana ko'plab san'atkorlar bilan yonmayonman. Undan tashqari, 2002-yildan beri har Navro'z va Mustaqillik bayram tantanalarida qatnashib kelmoqdaman. Bilasizmi, bunday rasmiy tantanalarda qatnashish katta mas'uliyatni talab qiladi. Bir martagina chiqib, kichikkina xato qilgan dugonalarim keyingi bayram tantanalaridan chetlashtirildi. Hech qanday tanbeh eshitmaslikka, nazardan chetda qolmaslikka harakat qilaman. San'atga ishtiyoqim balandligi bois tinim bilmay izlanaman. Darvoqe, yaqinda mening «Quyoshga intilaman» deb nomlangan kitobim nashrdan chiqdi. Bu bir quvonchimga ming quvonch qo'shdi.

Sitora AVEZOVA, Sobir Rahimov tumanidagi 326-maktab o'quvchisi.

**SITORAMAN**

1. Cholg'u asbobi.
2. Go'sht yog'i.
3. Ekin turi.
4. Qizlar ismi.
5. Onaning aka yoki ukasi.
6. Olis, yiroq.
7. Xoh inon, xoh .....

Javlon FARMONOV,  
Toshkent shahri, Hamza  
tumanidagi 206-maktab  
o'quvchisi.

### BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

		B		
		I		
		L		
		A		
		G'		
		O		
		N		

**Tengdoshlaring ijodi**

### SO'NGGI QO'NG'IROQ

O'zgachadir bugun olam,  
Yanada zarrin quyosh.  
Qalbimizda uning aksi,  
Va lekin ko'zlarda yosh.  
Kabutarmiz, qanotimiz -  
Orzulardan yaralgan.  
O'tkir, o'ktam nigohimiz,  
Kelajakka qadalgan.  
Bizni qutlab oq yo'l tilar,  
Bugun so'nggi qo'ng'iroq.  
Lekin maktab, ustozlardan,  
Juda og'ir ayrilmoq.  
Mehridaryo aziz ustoz,  
Rozi bo'ling bizlardan.  
Yuzga ajin, sochlarga oq,  
Tortiq o'g'il-qizlardan.

Gulnoza QURBONOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob  
tumanidagi Ahad Xo'jayev nomli  
maktab o'quvchisi.

### KAMTARGA KAMOL

- Tog' qo'ynida bor yashil o'rmon,
- O'sar archa, yong'oq, arg'uvon.
- Butalar-u, qari na'matak,
- Yashar unda sarvibo'y terak.
- Bir oila, bo'lib bitta jon,
- Tog'-onaga bo'lmishlar qo'rg'on.
- Qat-qat qorlar o'rab boshini,
- Mahkam tutar tog'lar toshini.
- Buta yuvib ketmasin deb sel,
- Qoyalarni quchar bog'lab bel.
- Yong'oq, archa hamda arg'uvon,
- Chor atrofga bo'libdi qalqon.
- Ammo, terak baland dimog'i
- Debdi: «Menman tog'ning chirog'i
- Sarvqomat, badanim oppoq,
- Daraxtlardan ustunman mutloq.
- Menga yetmas hatto arg'uvon,
- Bo'yim teshib o'tadi osmon.
- Yong'oq, olma, na'matak, archa,
- Menga ta'zim aylasin barcha».

Bundan ranjib bir siltab etak,  
Boshin egdi qari na'matak.  
Novdalarda mevasi solma,  
O'yga toldi donishmand olma.  
Guldiradi g'azabdan osmon,  
Sindi bardosh kosasi shu on.  
Qovog'idan chaqnadi olov,  
Yondi terak tanasi lov-lov.  
Chinqiradi, uchib fig'oni,  
O'chib qoldi g'urur tug'yoni...

Tog' qo'ynida bor yashil o'rmon,  
O'sar archa, yong'oq, arg'uvon.  
Butalar-u qari na'matak,  
Hamda chaqmoq kuydirgan terak.

Shahnoza RAVSHANOVA,  
Toshkent viloyati,  
Chirchiq shahridagi  
2-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

**TONG yulduzi**

O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

Umida

**ABDUAZIMOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Botir UBAYDULLAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

(bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida

022-raqam bilan  
2003-yil 11-dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 18717

Buyurtma N: J 2567

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV

Navbatchi:

Muharrama

PIRMATOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45